

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

4-2024

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

O.E.Toshmurodov

Yosh kurashchilarning harakat ko'nikmalarini shakllantirishda tayanch-harakat apparati harakatchanligini rivojlantirish metodikasi 107

J.M.Hamrakulov

"Tyutorlik faoliyati asoslari" fanini o'qitishda zamonaviy axborot texnologiyalarini qo'llash..... 114

D.S.Abduqodirov

Bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy-kreativ kompetensiyasini rivojlantirishning psixologik-pedagogik jihatlari 117

R.A.Jo'rayeva, M.A.Hojiyeva

Bo'lajak filolog-mutaxassislarning lingvistik kompetentligini rivojlantirish va takomillashtirish – malakali mutaxassislar tayyorlash omili 120

G.I.Otaboyeva, Z.G.Mamataliyeva

Bo'lajak xorijiy til o'qituvchilarining gender madaniyatini rivojlantirish metodikasini takomillashtirishda texnologik yondashuv 123

O.X.Rashidova

Bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarining mustaqil ta'limini muammoli vaziyatlar asosida tashkil etish..... 126

Z.D.Rasulova

Talabalarning kreativ kompetentligini rivojlantishda ta'lim texnologiyalaridan samarali foydalanish 131

Н.Э.Юлдашева

Эффективные формы и методы развития профессиональной компетентности учителей физического воспитания 136

Е.М.Любимова, А.И.Кудряшова, М.К.Ахмадалиева, К.Д.Патидинов

Обучение цифровым инструментам и ресурсам студентов - бакалавров педагогического образования 139

Sh.G'.Xasanov

Bo'lajak o'qituvchilarning kollaborativ yondashuv asosida pedagogik intensiyalarini rivojlantirish modeli 145

M.I.Ne'matov

Bo'lajak o'qituvchilarda etnopedagogik madaniyatni rivojlantirishning pedagogik imkoniyatlari..... 152

I.X.Turdiboyev

Bo'lajak kimyo o'qituvchilarini xalqaro baholash tadqiqotlariga tayyorlash bo'yicha ayrim mulohazalar 160

IQTISODIYOT**X.X.Бозаров**

Совершенствование научно-методических основ развития малого бизнеса в условиях инновационной экономики 164

FALSAFA**N.S.Badriddinova**

XVII – XVIII asrlarda Movarounnahrda falsafiy va tasavvufiy qarashlar 171

B.B.Dehqonov

Bahouddin Naqshbandning inson kamoloti haqidagi qarashlari..... 175

O.R.Sultonova, S.S.Sadullayev

Qishloq yoshlarini iqtisodiyot tafakkurini shakllantirishda raqamli iqtisodiyotning o'rni va ahamiyati 180

I.J.Jabborov

Shayx Najmiddin Kubro ruboilyarida ishq falsafasi 184

G.N.Navro'zova

Xoja Ahror Valiy o'zlikni anglash xususida: qiyosiy-falsafiy tahlil 187

M.E.Xujamov

Yangilanayotgan O'zbekistonda ilmiy-axloqiy qadriyatlarning barkamol avlodni tarbiyalashdagi o'rni..... 191

F.A.Ibroximov

Fuqarolik jamiyatini rivojlantirishda aholi huquqiy madaniyatining ahamiyati 197



УО'К: 37.091.2

**BO'LAJAK FILOLOG-MUTAXASSISLARNING LINGVISTIK KOMPETENTLIGINI
RIVOJLANTIRISH VA TAKOMILLASHTIRISH – MALAKALI MUTAXASSISLAR TAYYORLASH
OMILI**

**РАЗВИТИЕ И СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ЛИНГВИСТИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ
БУДУЩИХ ФИЛОЛОГОВ –СПЕЦИАЛИСТОВ-ФАКТОР ПОДГОТОВКИ
КВАЛИФИЦИРОВАННЫХ СПЕЦИАЛИСТОВ**

**THE DEVELOPMENT AND IMPROVEMENT OF THE LINGUISTIC COMPETENCE OF
FUTURE PHILOLOGISTS – SPECIALISTS IS A FACTOR IN THE TRAINING OF QUALIFIED
SPECIALISTS**

Jo'raveva Ramziya Abdurahimovna 
Qo'qon davlat pedagogika institute dotsenti

Hojiyeva Minovvarxon Akramovna 
Qo'qon davlat pedagogika instituti o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqola bo'lajak filolog mutaxassislarni tayyorlashda lingvistik kompetentlikning o'rni va ahamiyati mavzusiga bag'ishlangan bo'lib, unda kompetensiya, uning mazmun-mohiyati, kompetentlik, lingvistik kompetentlik, kasbiy kompetentlik, pedagogik jarayonda kasbiy kompetentlikning o'rni kabi terminlarining qo'llanishi xususida ma'lumot berilgan. Filolog-mutaxassislar uchun kasbiy kompetentligining asosiy yadrosini lingvistik kompetentlik tashkil etish masalasi yoritilgan.

Аннотация

Данная статья посвящена теме роли и значения языковой компетентности в подготовке будущих специалистов-филологов и включает в себя употребление таких терминов, как компетентность, ее сущность, компетентность, лингвистическая компетентность, профессиональная компетентность, роль профессиональной компетентности. в педагогическом процессе Данна информация о применении. Лингвистическая компетентность является основным ядром профессиональной компетентности филологов-специалистов.

Abstract

This article is devoted to the topic of the role and importance of linguistic competence in the training of future philological specialists, and it includes the use of such terms as competence, its essence, competence, linguistic competence, professional competence, the role of professional competence in the pedagogical process. Information is given about the application. Linguistic competence is the main core of professional competence for philologists-specialists

Kalit so'zlar: kompetentlik, nutqiy kompetensiya, lingvistik kompetentlik, kompetensiyaviy yondashuv, kasbiy yetuklik, bilim, ko'nikma, malaka.

Ключевые слова: компетентность, речевая компетентность, языковая компетентность, компетентностный подход, профессиональная зрелость, знания, умение, квалификация.

Key words: competence, speech competence, linguistic competence, competence approach, professional maturity, knowledge, skill, qualification.

KIRISH

O'zbek tili va adabiyoti fani o'quv fanlarining asosini tashkil qiladi. O'qituvchi va talabalarda kitobxonlik madaniyatini shakllantirishda, ularning o'z fikrlarini og'zaki va yozma tarzda to'g'ri hamda ravon bayon qilishida, boshqalar fikrini anglab, unga munosabat bildirishida, umuman olganda, barkamol shaxsni tarbiyalashda mazkur fanlarning o'rni beqiyos. Ushbu fanlarni o'qitish va takomillashtirish, tildan amaliy foydalanish samaradorligini oshirish hamda kompetensiyaviy yondashuv asosida ta'limni tashkil etish vazifa qilib belgilandi.

PEDAGOGIKA

Til – har bir millatning mavjudligini ta'minlovchi, xalqni xalq sifatida rivojlanishiga asos bo'luvchi vosita. Yoshlarning milliy istiqol hamda milliy qadriyatlarga hurmat ruhida tarbiyalashda o'zbek tili va adabiyoti fanining o'rni beqiyos. Chunki insonning zeb-u ziynati uning tili va odob-axloqida namoyon bo'ladi. Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyevning: "Ona tilimiz – milliy ma'naviyatimizning bitmas-tuganmas bulog'idir. Shunday ekan, unga munosib hurmat va ehtirom ko'rsatish barchamizning nafaqat vazifamiz, balki insoniy burchimizdir"[6] degan fikrlari tilning ma'naviy-ma'rifiy xazina ekanligini yana bir bora isbotlaydi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

A.Nurmonov hamda G.Ziyodullayevalar "kompetensiyaviy ta'lim til ta'limi oldiga o'quvchilarda lingvistik, nutqiy, kreativ (mustaqil va ijodiy fikrash), pragmalingvistik singari kompetensiyalarini shakllantirish" lozimligini ta'kidlaydilar[3, 9]. Kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan ta'limning bosh vazifasi har tomonlama yetuk, ijodiy fikrlovchi, zarur axborotlarni mustaqil izlab topuvchi, erkin muloqotga kirisha oladigan shaxsni tarbiyalashdan iborat. Ta'limda mustaqil fikrlay oladigan, nutq va muloqot madaniyati rivojlangan shaxsni kamol topishida esa yetuk mutaxassislar, ya'ni fan o'qituvchilar alohida o'rinn tutadi. Shunday ekan, filolog mutaxassisning o'zi nutqiy va lingvistik kompetensiyaga ega bo'lishi lozim.

"Lingvistik kompetensiya – til va uning sathlari: fonetika, leksika, so'z tarkibi, so'z yasalishi, morfologiya, sodda va qo'shma gap sintaksi, matn uslubi asoslari bo'yicha bilim, ko'nikma, malaka egallash demakdir" [1, 98]. Agar til mutaxassisisi o'rganilayotgan til tizimi haqida tasavvurga ega bo'lsa va amalda undan foydalana olsa, lingvistik kompetensiyaga ega deyish mumkin.

D.Nabiyeva "Lingvistik kompetensiyaga ega bo'lish uchun til sathlari va sath birliklari, ularning muloqot jarayonidagi ifoda imkoniyatlari, to'g'ri so'zlash, tinglash, o'qish va yozish ko'nikmalarini hosil qilish lozim. Shu bilan birga lingvistik kompetensiya o'z tarkibiga sosiolingvistik va pragmalingvistik kompetensiyalari" ham qamrab olishini aytib o'tgan [2, 91]. N.Uluqov lingvistik kompetensiyaga "... mutaxassis til bilimining mukammaligi va yetukligi" deb ta'rif beradi hamda lingvistik kompetentlikning bir necha ko'rinishlarda namoyon bo'lishini sanab o'tadi: o'z fikrini ona tilida ravon, tushunarli, aniq va lo'nda ifodalay olish; adabiy tilda so'zlash; imloviy, ishoraviy va uslubiy xatolarsiz yoza olish; davlat tilida ish hujjatlarini yurita olish; xorijiy tillarni bilish va hokazo [5, 16].

NATIJA VA MUHOKAMA

Lingvistik kompetentlik butunlik sifatida bir necha struktur komponentlardan tashkil topadi, eng avvalo, ona tili fani haqidagi bilim va malaka o'rtaida munosabatdan iborat. Ona tili haqidagi bilim esa o'zbek tilining funksiyasi, ona tili fanining bo'limlari, til sistemasi va uning birliklari, bu birliklarning ma'no va vazifalari, so'z turkumlari va ularning o'ziga xos xususiyatlari, gap bo'laklari va gapning ifoda maqsadiga, tuzilishiga ko'ra turlari, ularning uslubiy belgilari, imloviy xususiyatlari sistemasidan tashkil topadi. Atrof muhitni anglash, bo'layotgan voqe-hodisalarini sergaklik bilan kuzatib, ulardan kerakli xulosalarni chiqarish, har bir hodisaga ijodiy yondashgan holda, o'zining mustaqil fikrini emin-erkin ayta olish lingvistik kompetensianing mazmun-mundarijasini belgilaydi [4, 87].

Lingvistik kompetentlikning ahamiyati shundaki, har bir talaba, ya'ni yosh mutaxassisning davlat tilidan imloviy savodxonligini yaxshilash, o'zbek tilidan kasbiy faoliyatlarida samarali foydalanishlariga zamin yaratish, notiqlik mahoratini egallashi uchun lingvistik kompetensiya zarur bo'ladi.

Inson qaysi kasbni egallahidan qat'iy nazar, o'z ishiga, mashg'ulotiga mehr bilan, qunt bilan yondoshsa, uning mohiyatini, sir-asrorini mukammal egallaydi va o'z sohasiga mehr quyib kamol topadi.

Hozirgi kunda bo'lajak mutaxassislar, jumladan, filolog-o'qituvchilar uchun kasbiy kompetentlikning bir bo'g'ini hisoblangan lingvistik kompetentlikka ega bo'lishi zarur. Lingvistik kompetensiya bo'lajak mutaxassisning o'rganayotgan til materiallaridan va olingan axborotlardan kasbiy faoliyatida oqlona foydalana olish, shu tilda o'z fikrini og'zaki va yozma tarzda mustaqil ifodalash, mutaxassislikka oid terminlarni tushunish, ularni o'z o'rniда qo'llay bilish, terminlarning muqobilari, variantlari, sinonimlarini hamda tarixiy-etimologik manbalarini, terminlarning mazmun-mohiyatini mukammal bilish, ularni nutqiy vaziyatlarga mos ravishda qo'llay olish ko'nikma-malakalarini tarkib toptirish, ya'ni terminlarni maqsadli ravishda amaliy qo'llash layoqatini

shakllantirishdan iborat. Fanga oid o'quv lug'atlarini bilish ham lingvistik kompetensiyaning asoslaridan biri hisoblanadi. Chunki o'quv lug'atlari bilan ishlash bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlarini kengaytiradi, bilimlarining amaliy jihatdan mustahkamlanishini ta'minlaydi. Talaba mustaqil ishslash, mutolaa qilish, terminlarni mustaqil o'zlashtirishga qo'shimcha manba bo'lib xizmat qiladi. Bu esa bo'lajak mutaxassisning so'z boyligini orttirishga, o'z fanining terminlarini mukammal o'zlashtirishga imkon beradi. Yosh mutaxassislarning raqobatbardosh, yetuk kadr bo'lib yetishishida o'z faniga oid terminlarni anglashi, ularni o'z o'rniда qo'llashi, mazmun-mohiyatini tushunishi, fanga oid terminlarni yaxshi o'rganishi, terminlarni atama, istiloh va boshqa so'zlardan farqini ajratishi muhim vazifa hisoblanadi. Ta'lim sifati va samaradorligini oshirishda, fan bo'yicha terminlarni o'rganish, ularni o'qitishning zamonaviy usullari, shakl va vositalari, o'yin texnologiyalari, muammoli o'qitish, xususan, kurs ishi va mustaqil ishning noan'anaviy metodlaridan foydalanish muhim o'rinni egallaydi.[7, 503]

XULOSA

Xullas, ta'limning barcha turlarida, jumladan, til ta'limida kompetensiyaviy yondashuvni rivojlantirish dolzarb vazifa hisoblanadi. Bunda o'zbek tili va adabiyot fani barkamol shaxsniga tarbiyalashning tayanch nuqtasi bo'lib xizmat qiladi. Lingvistik kompetensiyani shakllantirish talabalar, yosh mutaxassis filologlarda to'g'ri talaffuz va imlo savodxonligini egallah, o'z mutaxassisligiga doir terminlarni puxta o'rganish, so'zning ma'nio qirralarini anglash va nutqda o'rinni hamda to'g'ri qo'llash, kasbiy faoliyatiga oid adabiyotlarni o'qib tushunish, o'z fikrlarini og'zaki va yozma ifodalash orqali nutqiy ko'nikma, malakalarini rivojlantirishga imkon yaratadi. Shiddat bilan rivojlanayotgan davrda kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun savodxonlik, kasbga loyiqlik, o'z sohasi bo'yicha egallagan bilim, ko'nikma, malakalaridan kasbi doirasida mustaqil ravishda amaliy va oqilona foydalanish zarur hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Азимов Э.Г., Шчкин А.Н. Новый словарь методических терминов и понятий (теория и практика обучения языкам). – М.:Издательство ИКАР, 2009. – С.98.
2. Набиева Д. Лингвистик компетенция ва унинг шаклланиш жараёнлари // Андижон давлат университети Илмий хабарнома. – Андижон, 2019. – №12. – Б. 91.
3. Нурмонов А., Зиёдуллаева Г. Ўқувчиларнинг тил компетентлигини шакллантириш ва ривожланиши муаммолари//Маърифат, 2014, 18 июль. – Б. 9.
4. Собиров А. Узлуксиз таълимда тил компетенцияси // Нутқ маданияти ва ўзбек тилшунослигининг долзарб масалалари: Республика илмий-амалий анжуман материаллари. – Андижон, 2016. – Б.87
5. Улуқов Н. Лингвистик компетентликни шакллантириш омиллари //Тил ва адабиёт таълими, 2018. – № 6. – Б. 16.
6. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг “Ўзбекистон Республикаси давлат тили мақоми берилганигининг ўттиз йилилигига бағишланган тантанали нутқи // Газета.uz/oz/ 2019 йил, 22 октябрь.
7. Hojiyeva, Minovvarxon. "MUSTAQIL TA'LIM VOSITASIDA BO'LAJAK FILOLOG MUTAXASSISLARNING TERMINOLOGIK KOMPETENTLIGINI RIVOJLANTIRISH." Farg'onan davlat universiteti 1 (2023): 503-507.
8. Hojiyeva, Minovvarxon. "РАЗВИТИЕ ТЕРМИНОЛОГИЧЕСКОЙ КОМПЕТЕНТНОСТИ БУДУЩИХ СПЕЦИАЛИСТОВ-ФИЛОЛОГОВ ПОСРЕДСТВОМ САМОСТАЯТЕЛЬНОГО ОБУЧЕНИЯ." Farg 'ona davlat universiteti ilmiy jurnali 1 (2023): 497-501.
9. Hojiyeva, M. "THE ROLE OF INDE
10. PENDENT STUDYING IN THE DEVELOPMENT OF TERMINOLOGICAL COMPETENCE OF PHILOLOGY STUDENTS." Science and innovation 2.B1 (2023): 298-303.
11. Hojjeva, Minovvarxon. "TERMINOLOGIK KOMPETENTLIK-BO'LAJAK FILOLOG MUTAXASSISLARNI TAYYORLASHNING ASOSI SIFATIDA." Scientific journal of the Fergana State University 3 (2022): 35-35.